IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHM dagi ulushi **64,7 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylari-da **3730** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **73,8** foizni tashkil qildi.



Eng ko‘p yangidan tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 1135 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 1087 ta, sanoat tarmog‘ida 577 ta, yashash va ovqatlanishda 235 ta, qurilish tarmog‘ida 165 ta, tashish va saqlashda 164 tani tashkil etilgan.



2023- yilning yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning 64,7 foizi (2022- yil yanvar-iyunida 66,1 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 3010,7 mlrd. so'mni (21,2 foiz) (faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 4013 tani tashkil etdi);

14991,4 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,8 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 6016 tani tashkil etdi;

2424,3 mlrd.so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 33,2 foizi) 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi;

3019,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 76,1 foizi) (qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2688 tani tashkil etdi);

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,8 foizga (viloyatning jami avtomobil' transporti yuk aylanmasining 88,5 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 6,5 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 95,5 foizi) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 985 tani tashkil etdi);

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 81,2 foizi yoki 7208,7 mlrd. so'm, xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 50,5 foizi yoki 3759,7 mlrd. so'mni, tashkil qildi. faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 10 630 ta

49,1 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 25,1 foizi) 59,4 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 59,0 foizi) (hisobot davrida 166 ta kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan eksport hamda 354 tasi tomonidan import operatsiyalari amalga oshirildi).

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi



	Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m	*kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida*
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	14991,4	98,8
Sanoat	3010,7	21,2
Qurilish	3019,4	76,1
Chakana savdo	7208,7	81,2
Yuk tashish, *mln tn.*	22,2	88,5
Yo‘lovchi tashish, *mln. kishi*	164,2	86,3
Eksport, *mln. AQSH doll.*	49,1	25,1
Import, *mln. AQSH doll.*	59,4	59,0

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



2023- yil 1-iyul holatida 41762 ta kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan (36699 ta) 113,8 foizni tashkil etdi.



Eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo tarmog‘ida barcha ro‘yxatdan o‘tganlarning (34,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo’jaligida (21,7 %), sanoat (14,6 %), qurilish (9,0 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (5,8 %), tashish va saqlash (3,0 %) hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (1,8 %) iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, jamiga nisbatan foiz hisobida)



2023- yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi



Shahar va tumanlar bo‘yicha eng ko‘proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (543,7 mlrd. so‘m), Chiroqchi (299,4 mlrd. so‘m), Koson (244,5 mlrd. so‘m), Kasbi (214,5 mlrd. so‘m), Qarshi (211,2 mlrd. so‘m), Shahrisabz shahri (194,3 mlrd. so‘m), tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko'kdala (90,5 mlrd. so‘m), Dehqonobod tumanida (93,6 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan chakana tovar aylanmasi hajmida Qarshi (1820,3 mlrd. so‘m), Shahrisabz (764,1 mlrd. so‘m) shaharlari va Koson (561,8 mlrd. so‘m) va Qamashi (534,4 mlrd. so‘m) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da xizmat ko‘rsatish hajmi va o‘sish sur’atlari



2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 64,7 foizni tashkil qilib, 2022- yilning mos davrida 66,1 % foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Ko'kdala tumani (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Shahrisabz shahri (86,4 %), Chiroqchi (80,5 %) tumanlariga va eng past ulushi Nishon (2,3 %) tumaniga to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo‘yicha jami xizmat ko‘rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Mirishkor (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (91,0%), Koson (85,5 %), Qamashi (84,9 %), Kitob (84,6 %), Dehqoobod (82,1 %), Kasbi (80,8 %), Qarshi (80,2 %), G‘uzor (75,2 %), Nishon (74,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.